

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH
DAVLAT QO'MITASI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH VA JORIY ETISHNING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

I-QISM

2022 yil 12-14 may



Samarqand, 2022-yil.

3. Петракова К.А. “Оперативная хирургия с топографической анатомией животных” Москва 2003 г. стр-174.
4. Komnenou A., Dessiris A., Giadinis N. Surgical treatment of coenurosis (gid) in sheep //Veterinary Record. – 2000. – Т. 147. – №. 9. – S. 242-244.
5. Шодмонов И. ценуроз овец в таджикистане (распространение, профилактика, лечение) москва–2005 с-20.
6. Oge, H., Oge, S., Gonenc, B., Ozbakis, G. and Asti, C., 2012. Coenurosis in the lumbar region of a goat: a case report, Veterinari Medicina, 57(6), 308–313

INTERNET MA'LUMOTLARI

1. <https://lex.uz/docs/5858728>
2. https://www.researchgate.net/publication/2308218_Surgical_treatment_of_coyenurosis_gid_in_sheyep
3. <https://ru.wikipedia.org>
4. <https://rmebrk.kz/journals/5934/20310.pdf#page=37>
5. <https://ucom.ru/doc/na.2018.04.03.209.pdf>

UDK:619:636.2:618

DJUMANOV S.M., SUVANOV S.A. MAHSULDOR SIGIRLARD MASTITLARNI SABABLARI VA TURLARI

Annotatsiya. Maqolada mahsuldor sigirlarda uchraydigan sut bezining yallig'lanishi mastit kasalliklar bo'lib, kelib chiqishi sabablari turli holatda, yani mexanik, termik, kimyoviy va biologik omillarning ta'sirida kelib chiqishi, rivojlanishi, tarqalishi, turlari va kechish xususiyatlarini, hamda mastitlarning davolash usullari va oldini olish chora tadbirlarini, mastitlar bilan kasallanish darajasi adabiyot ma'lumotlarida keltirib o'tilganligi bo'yicha o'rganishlar olib borilgan tadqiqot natijalarining tahlili: sigirlarda mastitlarning etiologiyasi, asosiy turlari, xarakterli klinik belgilari bayon etilgan va yashirin matitga tekshirish uullari ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Zardobli, kataral, fibrinli, yiringli, gemorragik, klinik, subklinik mastit, krepitasiya, yelin ovsili, yelin flegmonasi, spesifik mastitlar, qizil kuylak

Mavzuning dolzarbligi. Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish zamonaviy va innovasion uslublarini joriy etish, mahso'lotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahaliy sharoyitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahso'lotlari sut-go'sht bilan uzluksiz taminlash hamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarni Davlat tomonidan qo'llab quvvatlash maqsadida Prezidentimiz tamonidan 2020 yil 29-yanvardagi PQ-4576-son qarorida kursatib utilgan unga ko'ra chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fuqarolar bilan hamkorlikni taminlash chorvachilikning barcha tarmoqlari va naslchilik sohasini rivojlantirishni olib borish va muammolarni yechimini topish mahsuldorlikni oshirish, ozuqabob ekinlarni yetishtirish mahso'lot ishlab chiqarish va naslchilik seleksiya amaliyotida yangi ilmiy tadqiqot natijalari va innovasion ishlanmalarni yo'lga quyish borasida ko'rsatmalar berilgan. Davlatimiz tomonidan chiqariladigan qator farmon va qarorlari, chorvachilik mahsulotlarini kupaytirishga qaratilgan bulib, ayniqsa, Respublikamiz axolisini sifatli go'sht va sut bilan ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri xisoblanadi. Ayniqsa, maxsuldor sigirlar orasida mastit kasalliklarini kuplab uchrashi oqibatida fermer xo'jaliklari va axoliga qarashli sigirlarda maxsuldorlikni keskin pasayishi, ayniqsa sut va sut mahsulotlarini keskin kamayishiga ,buzoq olishni kamayishi, yuqori maxsuldor xayvonlardan foydalanish muddatlarini qisqarishi xisobiga aholi va fermer xujaliklari katta iqtisodiy zarar kurmoqda.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Mastit – sut bezining yallig'lanishi bo'lib, mexanik, termik, kimyoviy va biologik omillarning ta'sirida rivojlanadi. A. P. Studensov mastitlarning kechishi va oqibati patologik jarayonning joylashishi va qo'zg'atuvchisining patogenlik xususiyatlariga qanchalik bog'liq bo'lsa organizmning holati va sut bezi to'qimasining reaktivligiga ham shunchalik bog'liq deb ta'kidlaydi. Mastitlar laktasiya va sutdan chiqarilgan davrlarda uchrashi mumkin. [7]

Mualifni ma'lumotiga [7] ko'ra, kasallikning qo'zg'atuvchilari morfologik jihatdan bir turga mansub bo'lib, ularning biologik xususiyatlari, yelin to'qimasi va organizmning reaktivligiga bog'liq holda yallig'lanishlarning turli shakllari va ular birgalikda rivojlanishi mumkin. Shu bilan birga turli mikroorganizmlar klinik kechishi va morfologik o'zgarishlar kuzatilishiga ko'ra, yelinning bir xil yallig'lanishlarini chaqirishi mumkin. Masalan, streptokokk va stafilokokklar, ichak tayoqchalari, salmonyollalar ayrim hollarda zardobli mastitning qo'zg'atuvchilari, ayrim hollarda esa kataral, fibrinli yoki gemorragik mastitlarning qo'zg'atuvchilari hisoblanadi. Mastitlar paytida mikroblardan tashqari viruslar, zamburug' va mikoplazmalar ham rivojlanishi hamda mastitlar aseptik holatda (qo'zg'atuvchisi bo'lmaydi) rivojlanishi ham mumkin.

Bundan tashqari mastitlarning kelib chiqishi hayvonning yoshiga ham bog'liq ekanligi aniqlangan. Masalan, 5 yoshgacha - 12,1%, 5-10 yoshgacha - 63,6%, 10 yosh va undan yuqori yoshda - 24,3% sigirlar kasallanishi kuzatilgan. Kasallik asosan organizm tabiiy rezistentligining pasayishi oqibatida yuzaga keladi. Kasallikni asosiy chaqiruvchilari 26,9% hollarda stafillakokk, 25% holda streptokokk, 28,2% ichak tayoqchasi va shuningdek, salmonella, diplokokk, protey, korinebakteriya va zamburug'lar bo'lishi mumkin. Bu mikroorganizmlar yeliga asosan yelin so'rg'ichlari (galaktogen), qon tomirlari (gemotogen) va limfa yo'llari - (limfogen) orqali o'tadi. Mastitlar o'tkir (5-7 kungacha), yarim o'tkir (3 haftagacha) va surunkali (20-25 kungacha va undan ko'proq) tarzda kechadi.[2]

Mastitlarning umumiy patogenezi nerv tolalari o'tkazuvchanligining buzilishi va nerv uchlarining parabioz holatiga o'tishi, fermentativ faollikning yo'qolishi, oksitosin va vazopressin ishlab chiqarilishining kamayishi, moddalar almashinuvining va sut bezlari to'qimasi trofikasining buzilishi bilan xarakterlanadi. Yallig'lanish jarayonlari giperemiya, qonning dimiqishi, qon tomirlar o'tkazuvchanligining ortishi hisobiga qon plazmasining eksudatsiyasi va shaklli elementlarning emigratsiyasi bilan kechadi. Bu jarayonlar oqibatida yallig'lanish uchog'i atrofida demarkasion (o'suvchi) chiziq hosil bo'ladi.

Mastitlarning A. P. Studensov bo'yicha tasniflanishi boshqalariga nisbatan ma'quli hisoblanadi: 1) zardobli mastit; 2) kataral mastit (sut sistemasi, sut yo'llari va al'veolalar katar); 3) fibrinli mastit; 4) yiringli mastit (yiringli-kataral mastit, yelin absessi va yelin flegmonasi); 5) qonli mastit; 6) spesifik mastitlar (yelin oqsili, aktinomikozi, yelin sili); 7. Mastitning asoratlari (yelin induratsiyasi, yelin gangrenasi). [3]



1-rasm.Yiringli kataral mastit

Tadqiqotning maqsadi. Qoramolchilik fermer xo'jaliklarida mahsuldor sigirlarda mastitlarning etiologiyasi, kechish xususiyatlarini, turlarini va xarakterli klinik belgilarini hamda davolash va oldini olishni o'rganish.

Tadqiqot obyekti va usullari. Tadqiqotlar 2020-2022yillar davomida Samarqand viloyatining Samarqand tumani Chorva-sut servis fermer xujaligiga qarashli sog'in sigirlarda mastitlarning tarqalishi, asosiy turlari (zardobli, kataral, kataral-yiringli va fibrinli mastitlar) klinikasi va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish maqsadida dispanser tadqiqotlar o'tkazilib, hayvonlarni parvarishlanishi va oziqlantirilishi, sigirlarni sog'ish texnologiyasiga rioya qilinishi tahlil qilindi.

Sigirlarning oziqa rasioni tarkibi, to'yimliliigi va sog'in sigirlar organizm ehtiyojlarini qondirish darajasi o'rganildi.

Sog'in sigirlarning mastit bilan kasallanish darajasini o'rganish maqsadida ularda umumiy qabul qilingan usullar yordamida klinik tekshirishlar o'tkazildi, shuningdek, yelinterisi, sut bezi parenximasi va yelin surg'ichlarining holati o'rganildi. 16 bosh sog'in sigirlardan sut namunalari olinib, MKP-1 sut plastinkasi yordamida 2%-li mastin bilan sinama o'tkazilib, sigirlarning yashirin mastit bilan kasallanish darajasi aniqlandi.



2-rasm Subklinik mastitni aniqlash uchun MKP-1 plastinkasiga sut namunasini olish.

Olingan natijalar tahlili. Sigirlarda yashirin mastitlarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajribadagi 16 bosh mastit bilan kasallanganligi gumon qilingan sigirlarning 7 boshidan olingan sut namunalari sutning konsistensiyasi o'zgarmadi (sinama ijobiy), 3 bosh sigirda qisman o'zgarish kuzatildi (sinama noaniq) va 2 bosh sigirlardan olingan sut namunalari sut quyqalari borligi (sinama salbiy), ya'ni sigirlarda subklinik mastit kasalligi qayd etildi.

Shundan 4 boshi klinik mastit bo'lib, 1 bosh zardobli mastit, 2 bosh kataral-yiringli mastit, 1 bosh fibrinli mastit bilan kasallangan sigirlar tashkil etdi.

Mastitlarning diagnostikasida sigirlarni oziqlantirish tipi va darajasini, organizmning asosiy oziqa elementlari va biologik faol moddalarga bo'lgan talabini qondirilishini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Xo'jalikda sog'in sigirlar guruh usulida (har guruhda 60-80 bosh) parvarishlanadi. Oziqlantirish bir kunda uch marta, sug'orish suv quviridan suv oxirlari yordamida amalga oshiriladi. Sigirlar asosan kuproq bir joyda saqlanib, ular uchun kuproq faol masionni yetishmasligi

Adabiyot ma'lumotlaridan ma'lumki, rasionda oqsilli va shirali oziqalarning ortiqchaligi organizmda suv-tuz nisbatining o'zgarishi, ortiqcha suvning to'planishi, tananing pastki qismlarida jumladan elinda shishlar paydo bo'lishi hamda mastit rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Xulosa.

1. Sog'in sigirlarning mastit bilan kasallanishida ularni saqlash sharoitlari va sut sog'ish qoidalariga rioya etilmasligi, rasionlarning takomillashmaganligi, ya'ni rasionda oqsilli va shirali oziqalarning ortiqchaligi va yengil hazmlanuvchi uglevodlar hamda kletchatkaning yetishmasligi, suv-tuz almashinuvining buzilishi, sigirlar uchun faol yaratish va saqlash sharoitlarini tozsaligi talabga javob bermaslik.

2. Mahsuldor sigirlar orasida mastitlar keng tarqalgan bo'lib shundan 4 boshida klinik mastit bo'lib, 1 bosh zardobli mastit, 2 bosh kataral-yiringli mastit, 1 bosh fibrinli mastit bilan kasallangan sigirlar qayd etildi.

3. Klinik shaklli mastit bilan kasallangan sigirlarni ajratib, ularni kompleks tarzda davolash, yashirin mastitni aniqlash maqsadida har oyda bir marta tekshirish o'tkazishni tashkil etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. М.: Изд.ООО «Аквариум-Принт», 2005.С.-652-664

2. Коба И.С. Усовершенствование комплексной фармакотерапии при остром послеродовом мастите бактериально-микозной этиологии. Автореф. дисс.докт.вет. наук. 2009. С-28-33.

3. Студенцов А.Н., Шипилов В.С., Субботин Л.Г., Преображенский О.Н. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения, 7-ое изд. М.: "ВО Агропромиздат", 1999.

4. Субботин В.М., Субботина.С.Г., Александров И.Д. Современные лекарственные средства в ветеринарии. Феникс Ростов-на-дону 2000.

5. Баймишев, Х. Б. Практикум по акушерству и гинекологии: учебное пособие. – 2-е изд. перераб. и доп. – Самара: РИС ЦГХА, 2012. – 300 с.

6. Eshburiev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik, Toshkent, 2018.

7. Eshburiev B.M., Eshburiev S.B., Djumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma, Samarqand, 2020.

UDK:636.2.619:636.2

FAYZIYEVA S.F., NORBOYEV Q.N. BUZOQLAR DISPEPSIYASINING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Anatatsiya. Ushbu maqolada buzoqlarning ichki yuqumsiz kasalliklaridan bo'lgan dispepsiya kasalligi, uning etiologiyasi, patogenezi, diagnostikasi va profilaktikasi, ushbu kasallikdan qoramolchilik xo'jaliklariga keladigan iqtisodiy zararining o'zbek va chet el adabiyotlaridan o'rganilganlik darajasi qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar. Dispepsiya, antinatal gipotrofiya, alimentar dispepsiya, disbakterioz, patogen mikrofloralar, toksik dispepsiya, fermentodefitsit dispepsiya, autoimmun dispepsiya, immunodefitsit dispepsiya, oddiy dispepsiya.

Kirish. Yosh hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy to'sqinliklaridan biridir. Bular orasida dispepsiya kasalligi katta salmoqqa ega va qoramolchilik xo'jaliklarida buzoqlar orasida ko'p tarqalgan bo'lib, katta iqtisodiy zarar keltirmoqda.

Dispepsiya - yangi tug'ilgan hayvonlarning o'tkir kechadigan kasalligi bo'lib, moddalar almashuvi va hazm jarayonlarining buzilishi, umumiy zaharlanish va organizm to'qimalarining suvsizlanishi bilan tasniflanadi. Bu kasallik bilan ko'pincha buzoqlar kasallanadi. Kelib chiqishiga ko'ra fermentodefitsit, autoimmun, immunodefitsit va alimentar, kechish darajasiga ko'ra oddiy va toksik dispepsiyalar farqlanadi (Norboyev Q. N. va boshqalar, 2007).